

**FANLARARO INTEGRATSIYANI TASHKIL QILISHDA
KROSSKURRIKULYAR YONDASHUVNING NAZARIY ASOSLARI**

**OSIYO XALQARO UNIVERSITETI Xorazim filiali talabasi
Karimova Nargiza Bahrom qizi.**

Annotatsiya: Mazkur tezisda zamonaviy ta'lim tizimida fanlararo bog'liqlikni ta'minlashning eng samarali usullarida biri bo'lgan krosskurrikulyar yondashuvning nazariy-metodik asoslari tahlil qilingan. Tadqiqot davomida ta'lim mazmunini integratsiyalashning multidisiplinar va transdistsiplinar modellari qiyoslanib, ularning talabalarda tizimli fikrlashni shakillantirishdagi o'rni yoritilgan.

Kalit so'zlar: Integratsiya, krosskurrikulyar yondashuv, ta'lim paradigmalarining almashinuvi, konstruktivizm, kompetensiyaviy yondashuv, tizimli fikrlash, metakognitiv ko'nikmalar.

Adabiyotlar tahlili: Fanlararo integratsiya va krosskurrikulyar yondashuv masalalari zamonaviy pedagogika fanida muhim tadqiqot yo'nalishlarda biri hisoblanadi. Mazkur muammo bo'yicha olib borilgan ilmiy izlanishlarda ta'lim mazmunini integratsiyalash zarurati, fanlararo aloqadorlikni kuchaytirish hamda o'quvchilarda kompleks kompetensiyalarni shakillantirish masalalari ustuvor yo'nalish sifatida qaraladi. Integratsiya tushunchasining pedagogik asosi sifatida Yan Amos Komenskiyning "olam yaxlitligi" g'oyasi xizmat qiladi. Biroq, zamonaviy krosskurrikulyar yondashuv tushunchasi XX asrning o'rtalarida G'arbiy Yevropa va AQSH pedagogikasida shakillangan. X.Yakobs o'zining tadqiqotlarida krosskurrikulyar yondashuvni "fanlararo intellektual xarita" deb ataydi. Uning fikricha, o'quv dasturlari bir-biridan ajralgan emas, balki umumiy muammolar atrofida birlashishi lozim. Yana shuningdek, xorijiy tadqiqotchilar (J. Dewey, H. Jacobs, J.Darke) ishlarida krosskurrikulyar yondashuvning ta'lim mazmunini umumiy mavzular va muammolar asosida uyg'unlashtirishning samarali modeli sifatida talqin qiladi. MDH va mahaliy olimlar (B. Gershunskiy, V. Kraevskiy, I. Lerner, N. Muslimov, Sh. Sharipov va boshqalar) tadqiqotlarida integratsiyalashgan ta'lining didaktik asoslari, ta'lim mazmunining tuzilishi va fanlararo aloqadorlikni tashkil etish masalalari yoritilgan. Ushbu ishlarda krosskurrikulyar yondashuv kompetensiyaviy ta'lim bilan uzviy bog'liqlikda talqin qilinib, uning metodologik ahamiyati asoslab berilgan.



Kirish

Bugungi zamonaviy ta'lim tizimida bilimlar alohida fanlar doirasida emas, balki ularning o'zaro uzviy bog'liqligi asosida o'rgatish zarurati tobora ortib bormoqda. Global ta'lim makonida kompetensiyaviy yondashuvning ustuvor yo'nalish sifatida e'tirof etilishi o'quvchilarda kompleks bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishni talab etadi. Fanlararo integratsiya ta'lim mazmunini turli fanlar o'rtasidagi mazmuniy va mantiqiy bog'liqlik asosida tashkil etishni nazarda tutib, o'quvchilarda yaxlit tafakkur, tanqidiy fikrlash va muammoli vaziyatlarda mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Ushbu jarayonda krosskurrikulyar yondashuv o'quv dasturlarini umumiy mavzular, muammolar va kompetensiyalar asosida uyg'unlashtirish imkonini beruvchi samarali metodik vosita sifatida namoyon bo'ladi. Bugungi kunda xorijiy va mahaliy pedagogik tadqiqotlarda fanlararo integratsiya masalalari keng yoritilgan bo'lsa ham, krosskurrikulyar yondashuvning nazariy asoslarini tizimli ravishda tahlil qilish va uni milliy ta'lim tizimi sharoitida qo'llash mexanizmlarini ishlab chiqish zarurati saqlanib qolmoqda. Ayniqsa, ta'lim mazmunni integratsiyalash jarayonining pedagogik, didaktik va metodologik jihatlarini ilmiy asosda yoritish muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqot fanlararo integratsiyani tashkil etishda krosskurrikulyar yondashuvning nazariy asoslarini o'rganishga qaratilgan bo'lib, uning maqsadi ta'lim jarayonida fanlararo integratsiyani samarali tashkil etishning ilmiy-metodologik asoslarini tashkil qilishdan iborat.

Xulosa.

Tadqiqot fanlararo integratsiyani tashkil etishda krosskurrikulyar yondashuvning nazariy asoslarini o'rganishga bag'ishlanadi. Ilmiy manbalar va nazzariy qarashlar shuni ko'rsatadiki, zamonaviy ta'lim tizimida fanlararo integratsiya o'quvchilarda yaxlit bilimlar tizimini shakllantirish, ularning tanqidiy va ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish va kompetensiyaviy yondashuvni amalga oshirishda muhim pedagogik omil hisoblanadi. Tadqiqot natijalari krosskurrikulyar yondashuv fanlararo integratsiyani tashkil etishda samarali metodologik asos bo'lib xizmat qilishni tasdiqlaydi. Ushbu yondashuv ta'lim mazmunini umumiy mavzular va muammolar asosida integratsiyalash, fanlararo aloqadorlikni mustahkamlash hamda, o'quvchilarda kompleks bilim, ko'nikma va kompetensiyalarni shakllantirishga imkonini beradi. Fanlararo integratsiyani tashkil etishda krosskurrikulyar yondashuvdan foydalanish



ta'lim sifatini oshirish, o'quv dasturlarini modernizatsiya qilish va pedagoglarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qilishi ilmiy jihatdan asoslanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati.

1. Muslimov N.A. Pedagogika:nazariya va amaliyot. - Toshkent: Fan va texnologiya,2015.
2. SHaripov Sh. S. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar. - Toshkent: O'qituvchi, 2012.
3. Xodjayev B.X. Pedagogika nazariyasi va amaliyoti. - Toshkent: O'qituvchi, 2018.
4. Yo'ldashev J.G'. Usmonov S.A. Pedagogik texnologiyalar asoslari. - Toshkent: O'qituvchi, 2010.
5. Azizxojayev N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. - Toshkent: O'qituvchi, 2006.
6. To'xtaboyev B. Qodirov X. Ta'limda integratsiya va innovatsiyalar. - Toshkent: Fan, 2016.